FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA SHAHAR HOKIMINING QARORI

2024 - yil 16 - yanvar 15-11-169-Q/24 Farg‘ona shahar hokimligi

Farg‘ona shahrida avtotransport vositalari harakatini tartibga solish hamda yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish haqida

“Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 342-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qarori ijrosi yuzasidan Farg‘ona shahrida avtotransport vositalarining harakatini tartibga solish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida, shuningdek, Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2023-yil 14-dekabrdagi 33/1546-son xulosasini hamda Farg‘ona garnizoni harbiy avtomobil nazorati inspeksiyasining 2023-yil 1-dekabrdagi 491-son murojaatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2023-yil 14-dekabrdagi 33/1546-son xulosasi hamda Farg‘ona garnizoni harbiy avtomobil nazorati inspeksiyasining 2023-yil 1-dekabrdagi 491-son murojaati inobatga olinsin.

2. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

3. Farg‘ona shahrida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, transport vositalari harakatini tartibga solish maqsadida, Farg‘ona shahar Alisher Navoiy ko‘chasi 13^{A}-uyda joylashgan Farg‘ona shahar harbiy prokuraturasi oldida joylashgan yo‘lning bir tomoniga (50 metr masofaga) 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatilishiga ruxsat berilsin.

4. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Dehqonov) Farg‘ona shahar ko‘chalarida yo‘l belgisi o‘rnatishlishini tashkil etsin hamda mazkur hududlarda avtomobillar harakati cheklanishini nazorat qilib borsin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash Farg‘ona shahar hokimining o‘rinbosari J.Baxtiyorov hamda Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i A.Mirzaevlar zimmasiga yuklansin.

Farg'ona shahar hokimi **V.Nazarov**